



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA  
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA  
NORMATIVLARI**

---

**TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHNING  
SANITARIYA QOIDALARI VA ISHLAB CHIQARISH  
USKUNALARIGA QO‘YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining  
0208-06 - sonli SanQvaM**

**Rasmiy nashr**

**Toshkent – 2006**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA  
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA  
NORMATIVLARI**

---

**«TASDIQLAYMAN»  
O‘zbekiston Respublikasining  
Davlat bosh sanitariya vrachi  
B. NIYAZMATOV  
29-fevral 2006-yil**

**TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHNING  
SANITARIYA QOIDALARI VA ISHLAB CHIQRISH  
USKUNALARIGA QO‘YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining  
0208-06 - sonli SanQvaM**

**Rasmiy nashr**

**Toshkent – 2006**

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

### **Qo'llanish sohasi**

1. Ushbu “Sanitariya qoidolari” idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, sanoat, transport, qurilish va qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi yangi korxona va ishlab chiqarishlarni loyihalashtirishda, mavjudlarini qayta qurishda, shuningdek, ulardagi yangi uskunalarni loyihalashtirish va konstruksiyalashda hamda ishlab turganlarini modernizatsiya qilishda majburiy hisoblanadi.

2. Ushbu “Sanitariya qoidolari” texnologik uskunalariga qo'yiladigan mehnat gigiyenasi va sanoat sanitariyasining umumiy talablarini belgilaydi.

3. Ushbu qoidalarining ayrim bandlaridan har qanday chetga chiqish davlat sanitariya nazorati organlari bilan alohida tartibda kelishilishi shart.

4. “Sanitariya qoidolari” sanoatning ayrim tarmoqlari yoki ishlab chiqarishlari, alohida texnologik jarayonlar, muayyan ishlab chiqarish zararlari uchun xususiy sanitariya qoidalarini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu qoidalar mazkur “Qoidalar”ni aniq texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish uskunalariga qo'yiladigan sanitariya talablari qismida rivojlantiradi va to'ldiradi.

5. Texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va tashkil etishda, ishlab chiqarish uskunalarini konstruksiyalashda quyidagilarni ko'zda tutish lozim:

xonalar havosiga, atmosferaga va oqova suvlarga zararli yoki yoqimsiz hidli moddalarning chiqmasligi yoki minimal darajada chiqishi, shuningdek ishlab chiqarish xonalariga issiqlik va namlikning tarqalmasligi yoki minimal darajada tarqalishi;

shovqin, tebranish, ultratovush, radiochastotali elektromagnit to'lqinlar, statik elektr va ionlashtiruvchi nurlanishlarning bo'lmasligi yoki minimal darajada paydo bo'lishi;

jismoniy zo'riqishni, diqqat talab qilishni kamaytirish va ishchilarning charchashining oldini olish.

6. 5-bandda ko'rsatilgan talablarga erishish uchun uskunani loyihalash va modernizatsiya qilishda, texnologik jarayonlarni tashkil etishda quyidagilardan foydalaniladi:

zararli moddalarni zararsiz yoki kamroq zararli moddalar bilan almashtirish;

ish zonasida zararli moddalarning hosil bo'lishi va chiqishini imkon qadar kamaytirish (changlanadigan materiallarni namlash, alangali qizdirishni elektr bilan, qattiq va suyuq yoqilg'ini gaz bilan almashtirish, uskunani germetizatsiya qilish, uni o'rnatilgan mahalliy so'rg'ichlar bilan jihozlash, gidro va pnevmotransportdan foydalanish);

shovqin, tebranish va boshqa zararli omillar manbalari bo'lgan texnologik operatsiyalar va uskunalarni, shuningdek, uzellar va detallar tayyorlangan materiallarni, bu omillar mavjud bo'lmagan yoki kamroq ta'sir ko'rsatadigan jarayonlar va materiallarga almashtirish, uskunalar va ish joylarida shovqin yutuvchi va tebranishni so'ndiruvchi moslamalarni qo'llash;

ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi va uzviy bog'liqligi;

sanitariya-texnik qurilmalar bilan texnologik uskunalar avtomatik blokirovkalash, zararli moddalar ajralishi mumkin bo'lgan alohida jarayonlar va operatsiyalar davomida avtomatik nazorat va signalizatsiya o'rnatish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va ularni masofadan boshqarish; himoya choralarining avtomatik tizimiga ega bo'lgan signal gaz analizatorlarini qo'llash (ishlab turgan uskunalar, mahalliy so'rg'ichlar, favqulodda shamollatish tizimlari, gidrantlar va boshqalar bilan blokirovkalash);

uskunalar va kommunikatsiyalarning qizigan yuzalarini issiqlik izolyatsiyasi bilan ta'minlash, ish joylarida himoya moslamalarini o'rnatish;

jismoniy mehnatni mexanizatsiyalashtirish;

ish maydonini oqilona tashkil etish, unda havo muhitining optimal ko'rsatkichlarini, yoritilganlik darajasini, shovqin va tebranish me'yorlarini hamda boshqa zarur sharoitlarni ta'minlash;

harakatlanuvchi qismlar va uzellarning xavfsizligini ta'minlash;

texnologik chiqindilarni to'liq ushlab qolish va zararli aralashmalardan tozalash, sanoat oqovalarini iflosliklardan tozalash, tozalangan havo va suvni texnologik jarayonda qayta ishlatish.

7. Har bir yangi ishlab chiqarish, jarayon yoki uskuna loyihasining texnologik qismida quyidagilar bo'lishi shart:

ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan va ajralib chiqadigan zararli moddalar hamda fizik omillarning to'liq tavsiflari, loyihada foydalaniladigan mexanizmlarning texnik xususiyatlari, ularni mavjud kommunikatsiyalarga ulash shartlari;

Yangi, shu jumladan import qilinadigan kimyoviy preparatlar, shuningdek texnologik jarayon davomida hosil bo'ladigan yangi kimyoviy mahsulotlar uchun belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan gigiyenik me'yorlar, shovqin, tebranish va boshqa zararli fizik omillarning tavsifi hamda jihozlarni o'rnatish va ta'mirlashda ularni kamaytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar;

Loyihada ko'zda tutilgan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalarining ishlash tizimi va tamoyili, ularning vazifasi va xususiyatlari, o'rnatish va ularning ishlashini montaj qilish hamda foydalanish jarayonida tekshirish qoidalari;

Agar jihozlar majmuasiga kiritilmagan bo'lsa, o'rnatilishi lozim bo'lgan qo'shimcha maydonchalar, yoritgichlar, sanitariya-gigiyena moslamalari to'g'risidagi ko'rsatmalar;

Jihozlarni o'rnatish va ta'mirlashda og'ir qismlar va detallarni yechish hamda o'rnatishning alohida shartlari, zarur chizmalar va sxemalar ilova qilingan holda.

## **II. Xomashyo va materiallarni tashish va saqlash**

### **A. Xomashyo va materiallarni korxonalar va ishlab chiqarish joylariga yetkazib berish**

8. Xomashyo va boshqa materiallarni korxonalarga yetkazib berish qo'l mehnatini iloji boricha kamaytiradigan, ishchilarning jarohatlanishi va jismoniy zo'riqishi xavfini bartaraf etadigan, shuningdek zararli moddalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqani istisno qiladigan usullar bilan amalga oshirilishi lozim.

9. Barcha tashish va qayta yuklash jarayonlarida ish maydoni va korxona hududidagi havo muhiti, shuningdek ishchilarning tanasi va kiyimlari ifloslanishining oldini oluvchi choralar ko'zda tutilishi kerak.

10. Odatda to'kma holda keltiriladigan materiallar (tosh, shag'al, chaqiq tosh, qum, loy va boshqalar) uchun mexanizatsiyalashtirilgan usulda qulay yuklanadigan va tushiriladigan transport vositalari qo'llanilishi lozim: ochiq barjalar va barja-maydonchalar, temir yo'l platformalari, yarim vagonlar hamda avtomatik yuklash-tushirish moslamalari o'rnatilgan yuk mashinalari.

11. Kukunsimon va sochiluvchan materiallarni (sement, gips, fosforit uni va boshqalar) tashish uchun changsiz yuklash, tashish va tushirishni ta'minlaydigan maxsus temir yo'l vagonlari va sement tashuvchi turdagi yuk mashinalaridan foydalanish zarur.

Kukunli materiallarni idishlarda tashishda, idishlar yuklash-tushirish jarayonlarida butunligini saqlash uchun mustahkam materiallardan tayyorlanishi kerak. Keyinchalik materiallarni texnologik jarayonga idishda, qayta to'kmasdan yo'naltirish imkoniyatini ko'zda tutish lozim.

Zaharli kimyoviy moddalarni tashish uchun mo'ljallangan idishlarda tegishli belgilar bo'lishi shart.

12. Zararli va agressiv suyuq moddalarni (kislotalar, anilin, nitrobenzol, benzol, fenol va boshqalar) tashish uchun maxsus sisternalardan foydalanish lozim.

Ko'p miqdorda ishlatiladigan suyuq zararli va agressiv moddalar, suyultirilgan va siqilgan zararli gazlarni omborlardan ishlab chiqarishga yetkazib berishda, uzatilayotgan moddalar ta'siriga chidamli materiallardan tayyorlangan, flanetslar va armaturalari ishonchli ulangan quvurlardan foydalanish zarur.

13. Oson muzlaydigan va yuqori qovushqoqlikka ega moddalar uchun sisternalarda muzlagan va qovushqoq moddani tezda qizdirish hamda uning kimyoviy xususiyatlarini o'zgartirmagan holda suyuq holatga o'tkazish moslamalari ko'zda tutilishi lozim. Shu bilan birga, atmosferaga zararli bug'lar va gazlar chiqishini oldini oladigan choralari ham nazarda tutilishi shart.

14. Zararli va agressiv suyuq moddalarni kam miqdorda (2 tonnagacha) tashish mexanik jihatdan mustahkam va kimyoviy chidamli boshqa idishlarda (masalan, konteynerlar, bochkalar) amalga oshirilishi mumkin. Ularni kam miqdorda shisha idishlarda tashish zarur bo'lganda, idishni shikastlanishdan ishonchli himoyalash choralari ko'rilishi lozim.

15. Suyultirilgan zararli gazlarni (xlor, ammiak, fosgen va boshqalar) katta miqdorda (5 tonnadan ortiq) tashish uchun faqat maxsus temir yo'l va avtomobil sisternalaridan foydalanish kerak, bunday gazlarni ballonlarda tashish cheklanadi.

16. Zavod ichidagi barcha turdagi transport ishlayotganda ajralib chiqadigan chang, gaz, shovqin va tebranish darajasi sanitariya me'yorlari ruxsat etgan miqdorlardan oshmasligi shart.

17. Yuk ortish-tushirish joylari ko'tarish-tashish moslamalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

## **B. Omborlash**

18. Korxonalar xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni saqlash uchun yetarli sig'imga ega omborlarga ega bo'lishi lozim.

19. Omborlar yuk ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalash va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'tarish-tashish moslamalari bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

20. Omborxona xonalari stellajlar, seksiyalar va o'tish joylari orasidagi yo'laklar va yo'llar xavfsiz hamda yaxshi yoritilgan bo'lishi lozim.

21. Shamollatilmaydigan omborxonalarga avtotransport kiritish va ichki yonuv dvigatelli avtoyuklagichlardan foydalanish taqiqlanadi.

22. Uyum holida kelib tushadigan materiallar (ko'mir, ruda, tosh, shag'al, shlak va boshqalar) uchun ochiq omborlar ularni ko'chirish uchun mexanizatsiyalashtirilgan qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Kukun holatidagi materiallarni saqlash yopiq, shamoldan himoyalangan omborxona binolari va maxsus inshootlarda (bunkerlar, siloslar va boshqalarda) amalga oshirilishi, bunda mexanizatsiyalashtirilgan germetik yuklash va tushirish hamda aspiratsiya qilingan havoni atmosferaga chiqarishdan oldin changdan tozalash ta'minlanishi lozim.

23. Ishlab chiqarish chiqindilari maxsus ajratilgan xonalar yoki maydonchalarda, ular havo, suv va tuproqni ifloslantirmaslik sharoitida to'planishi kerak. Ularni yuklash va tushirish mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi

lozim. Xomashyo, materiallar, tayyor mahsulotlar va chiqindilarni saqlash uchun maydonchalar hamda omborxonalar jihozlanishi ularning korxona hududiga sochilib ketishi, yoyilib ketishi yoki dumalab ketishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

24. Zararli suyuqliklar va suyultirilgan gazlar uchun sisternalar to‘kish quvurlarini qo‘shimcha almashtirishlarni istisno etish maqsadida transport idishlaridan hajmi kattaroq bo‘lishi, sath o‘lchagichlar, nazorat-signal qurilmalari bilan jihozlangan bo‘lishi, shuningdek ishchilarning aloqasini va ular tomonidan atrofdagi havoning ifloslanishini istisno etadigan tarzda sisternalarni yuvish va bug‘lash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

25. Idishlarni (kichik va katta sig‘imli) kukunsimon materiallar bilan to‘ldirish mexanik uzatish yordamida, materiallarning idish tubiga erkin tushish balandligini iloji boricha kamaytirib amalga oshirilishi lozim. Bunda idish to‘ldirilayotganda undan siqib chiqarilgan havo so‘rib olinishi va tozalanishi shart. So‘rmasdan faqat o‘ralgan, ichida havo bo‘lmagan idishlarga yuklashga ruxsat beriladi.

26. Qoplar, bochkalar va boshqa kichik idishlardan sochiluvchan materiallarni changsiz tushirish uchun aspiratsiyali ishqalash mashinalari yoki vakuum-pnevmatik qurilmalar qo‘llanilishi zarur.

27. Barcha turdagi xom ashyoni omborlardan ishlab chiqarish binolariga tashishda chang, kimyoviy moddalar va shovqin chiqishini oldini olish, shuningdek agressiv suyuqliklar bilan ishlash xavfsizligi bo‘yicha talablarga qat’iy rioya qilinishi kerak.

28. Zararli moddalar ombori ularni sexlarga mexanizatsiyalashtirilgan tarzda yetkazib berishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri telefon aloqasi va signalizatsiya tizimi bilan bog‘langan bo‘lishi shart.

### **III. Chang hosil bo‘lishi va ajralib chiqishi bilan xarakterlanadigan ishlab chiqarish jarayonlari va uskunalari**

29. Ishlab chiqarish, foydalanish va qayta ishlash jarayonida chang ajratadigan xom ashyo va materiallar, masalan, suv yoki bug‘ bilan namlash, granulalash, briketlash va boshqa usullar orqali chang chiqarmaydigan holatga keltirilishi lozim.

30. Changlanuvchi materiallarni maydalash, yanchish, elash va aralashtirish uchun mo‘ljallangan ishlab chiqarish uskunalarini joylashtirish ularni tashish yo‘llarini iloji boricha qisqartirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

31. Ishlash jarayonida ko‘p miqdorda chang hosil qiladigan mashinalar, apparatlar va boshqa uskunalar yopiq bo‘lishi, maksimal darajada zichlangan va ishlab chiqarish xonalariga changli havo kirishini oldini oladigan aspiratsiya qurilmalari bilan jihozlangan bo‘lishi shart.

32. Xavflilik darajasi 1 va 2 bo'lgan moddalarning changini ajratib chiqarish ehtimoli mavjud jarayonlar va operatsiyalarda (quritish, maydalash, elash, presslash, dozalash, qadoqlash va hokazo) uzluksiz oqimli liniyalar yoki yuqori germetiklikka ega uskunalar ko'zda tutilishi lozim.

33. Chang ajralib chiqishi bilan kechadigan materiallar va buyumlarga mexanik ishlov berish dastgohlari ishlov berish zonasi uchun qopqoqlarga yoki himoyalovchi shaffof to'siqlarga va o'rnatilgan so'rg'ichlarga ega bo'lishi kerak.

Ishlash jarayonida chang hosil qiladigan mexanizatsiyalashtirilgan asboblarda so'rish qurilmasi o'rnatilgan holda zavodlar tomonidan ishlab chiqarilishi lozim.

34. Materiallarni maydalash va yanchishda, ishlab chiqarish chiqindilarini (kul, shlak va boshqalar) chiqarib tashlashda hamda chang ajralib chiqishi bilan kechadigan boshqa ishlarda suvni qo'llagan holda changni bostirish usullaridan (namlash, ho'llab maydalash, gidrozolni ushlab qolish, ho'llab boyitish va boshqalar) maksimal darajada foydalanish maqsadga muvofiq.

35. Materiallarni quruq maydalash ishlab chiqarish xonalari va atmosfera havosiga chang ajralishini minimal darajaga tushiradigan sxemalar bo'yicha tashkil etilishi lozim. Yirik fraksiyani tegirmonga yopiq tizimlar orqali qaytaradigan vakuum-pnevmatik transportdan foydalanish maqsadga muvofiq. Kukunsimon materiallarni pnevmotransportdan tushirish joylari aspiratsiyali himoya qurilmalari bilan jihozlanishi kerak. So'rib olinayotgan havodan mayda fraksiyani tutib qolish samarali chang tutgich moslamalar yordamida amalga oshirilishi lozim.

36. Materiallarni bir vaqtning o'zida quritish bilan maydalash jarayonida, maydalangan mahsulotni tutib qolish uchun qopli filtrlardan foydalanilganda, qoplar uchun material agressiv muhit va yuqori harorat ta'siriga chidamli bo'lishi shart.

Tegirmondan so'rib olinadigan gazlar harorati shudring nuqtasidan past bo'lmasligi va mato buzilishiga olib keladigan haroratdan yuqori bo'lmasligi kerak. Qoplar tikilgan emas, balki yaxlit to'qilgan bo'lishi lozim.

Chang tutgichlarning o'z vaqtida bo'shatilishini va filtrlarning qarshiligini nazorat qilish uchun asboblarda va avtomatik signalizatorlar o'rnatilishi shart.

37. Mahsulotni pnevmatik tashishsiz, istisno tariqasida foydalaniladigan maydalash-ezish agregatlari materiallarni yuklash, tushirish va to'kish joylarida so'rg'ichli himoya qurilmalari bilan ta'minlanishi kerak.

38. Kukunsimon materiallarni ochiq elaklarda elashga yo'l qo'yilmaydi. Yassi elaklar, elak-buratlar, tebranma g'alvirlar, shuningdek mayda-chuyda bunkerlari va boshqalar yopiq bo'lishi va aspiratsiya qurilmalari bilan jihozlanishi shart.

Materiallarni fraksiyalarga ajratishni pnevmotransportning yopiq siklini buzmasdan, masalan, havo separatorlari yoki elektr klassifikatorlarda amalga oshirish eng maqbul hisoblanadi.

39. Materiallarni davriy sarflash uchun mo'ljallangan bunker qopqoqlari ularni ochish uchun pnevmatik yoki elektr moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi shart.

40. Changlanuvchi materiallarni tashish uchun ishlatiladigan konveyer uskunalari chang ajralib chiqadigan joylarda to'liq yopilgan bo'lishi, yopqich ostidan changni chiqarib yubormaslik uchun yetarli miqdorda havo so'rib olinishi ta'minlanishi kerak. Ortiqcha yuklanishlarda changlanuvchi materiallarning tushish balandligi imkon qadar past bo'lishi lozim.

So'rish nuqtalarini harorat va havo oqimlarining yo'nalishini hisobga olgan holda tanlash zarur. Issiq hamda sovuq materiallarni tashiydigan elevatorlarning yuqori va pastki qismlarida so'rg'ichlar o'rnatilgan bo'lishi shart.

41. Konveyer tasmalariga materiallarning tushib ketishini oldini oladigan qurilmalar o'rnatilishi lozim. Tasmaning bo'sh qismiga unga yopishib qolgan materialni tozalab tashlash uchun moslamalar o'rnatish kerak. Konveyerlardan to'kilgan materiallarni ishchi xonalar havosiga chang minimal darajada tushishini ta'minlovchi usullar bilan mexanizatsiyalashgan tarzda yig'ishtirishni ko'zda tutish lozim.

Bunkerlarga sochiluvchi va bo'lakli materiallarni yuklashda bunkerlar to'lib bo'lgach, material yetkazib berishni avtomatik ravishda to'xtatish tizimi ta'minlanishi shart.

42. Bunkerlarning shakli va konstruksiyasi (masalan, ularda bitta vertikal devorning mavjudligi) ularni to'liq va oson bo'shatishni ta'minlamasa, bunkerlarni materiallarning osilib qolishi va tiqilib qolishiga qarshi moslamalar, jumladan aralashtirgichlar, vibratorlar, aeratorlar bilan jihozlash lozim.

43. Chang hosil bo'lish manbai hisoblangan ish o'rinlari, dastgohlar va uskunalari, ish zonasida va atmosfera havosida changning yo'l qo'yiladigan cheklangan konsentratsiyalar darajasida bo'lishini ta'minlaydigan aspiratsiya tizimlari hamda atmosferaga chiqarishdan oldin havoni changdan tozalash qurilmalari bilan jihozlanishi shart.

Ayrim hollarda, Davlat sanitariya nazorati organlari bilan kelishilgan holda, loyihalash jarayonida agar uning miqdori ish zonasi havosining  $1 \text{ mg/m}^3$  dan kam bo'lmasa, poyabzal qo'llashga ruxsat etiladi. Boshqa hollarda ishlab chiqarishni loyihalashda poyabzaldan foydalanish man etiladi.

44. Tarkibida kukunsimon yoki boshqa sochiluvchan chang ajratuvchi materiallar bo'lgan sig'implarni (siloslar, bunkerlar va boshqalar) bo'shatish uchun, agar bu chang ajralishining ko'payishiga olib kelishi mumkin bo'lsa,

materialning notekis tushishi, qulab tushishi yoki erkin tushishini oldini oluvchi dozalovchi qurilmalardan foydalanish zarur.

45. Materiallarning erkin tushishida chang hosil bo'lishini kamaytirish maqsadida, ularni novlardan yoki uzatma tasmalardan chiqarishda sochiluvchan materiallarning tushish balandligi va harakatlanish tezligini pasaytiruvchi qurilmalardan foydalanish lozim. Materiallar tushadigan joylar yopiq va aspiratsiya qilingan bo'lishi kerak.

46. Quruq qumni qo'llash orqali qum oqimi ishlarini bajarish taqiqlanadi. Buyumni drob, metall qum va suvli qum bilan tozalashda, jarayonni kuzatish va boshqarish ishchilarning kamerada bo'lishini istisno etishi lozim.

47. Hidroqum oqimli tozalashda yuqori bosimli nasoslar ishlayotgan paytda qum oqimli kameralar eshiklarining ochilishini blokirovka qilish choralari ko'rish kerak.

48. Kukun va pasta ko'rinishidagi materiallarni quritish uzluksiz ishlaydigan yopiq qurilmalarda (taroqli, valli, tasmasimon va purkovchi quritgichlar, quritish barabanlari va boshqalarda) siyraklashtirilgan sharoitda amalga oshirilishi lozim.

49. Changlanuvchi materiallarni pechlar, quritgichlar, generatorlar va boshqa qurilmalarga yuklash joylari, hamda ulardan mahsulotlarni tushirish joylari to'liq yopiq bo'lishi va mexanik ta'minlagichlar bilan jihozlanishi kerak. Bu joylar so'rish qurilmalari bilan ta'minlanishi shart.

50. Chang ajratib chiqarishi bilan ishlaydigan va o'z konstruksiyasiga o'rnatilgan so'rg'ichlarga ega bo'lgan qurilma va mashinalarning (tegirmonlar, metall va yog'ochga ishlov berish dastgohlari va boshqalar) pasportlarida qopqoq ostidagi zaruriy siyraklanish, texnologik jarayonning muayyan parametrlarida ulardan so'rib olinadigan havo hajmi hamda ajralib chiqayotgan chang va qirindi miqdori haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

51. Aspiratsiya tizimlari, shuningdek sug'orish va gidrochang bostirish tizimlarini texnologik uskunalarning ishga tushirish qurilmalari bilan blokirovka qilish zarur.

52. Mashinalar, mahsulotlar va uskunalarni siqilgan havo bilan puflash taqiqlanadi. Ularni changdan tozalash vakuumli chang yutgich qurilmalari yordamida amalga oshirilishi shart.

Izoh: alohida hollarda (to'qimachilik va shunga o'xshash sanoat tarmoqlarida) Sanitariya me'yorlari talablariga muvofiq ish joyida havo tozaligini ta'minlaydigan vakuumli chang yutgich qurilmalari bir vaqtning o'zida ishlab turgan holda siqilgan havo bilan puflashga ruxsat etiladi.

53. Dastgohlar qirindini mexanizatsiyalashgan va changsiz yo‘qotish uchun zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim. Dastgohlarning tuzilishi qirindini qulay va xavfsiz tozalashni ta‘minlashi kerak.

54. Ish xonalarini changdan tozalash mexanizatsiya vositalaridan foydalangan holda va changning xususiyatiga qarab nam usulda (changni suv bilan yuvish, pollarni nam holatda saqlash) yoki pnevmatik usulda (statsionar yoki ko‘chma chang so‘rish qurilmalari) amalga oshirilishi lozim.

#### **IV. Zararli gazlar, bug‘lar va suyuqliklarning qo‘llanilishi yoki hosil bo‘lishi bilan tavsiflanadigan ishlab chiqarish jarayonlari va uskunalari**

55. Texnologik jarayonlarni tashkil etish va ishlab chiqarish uskunalari xodimlarning zararli moddalar bilan aloqada bo‘lish ehtimolini istisno etishi shart.

56. Zararli moddalarning qo‘llanilishi yoki hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ishlab chiqarish jarayonlarini germetik qurilmalarda uzluksiz, yopiq sikl bilan o‘tkazish zarur. Bunda o‘z oqimidan maksimal darajada foydalanish, zararli moddalarning ajralib chiqishini cheklaydigan texnologik parametrlarni (vakuum, past harorat) qo‘llash va keng miqyosda kompleks avtomatlashtirish usullarini joriy etish lozim.

57. Alohida operatsiyalarni qo‘lda bajariladigan ishlarni iloji boricha kamaytirgan holda amalga oshirish kerak. Zararli moddalar ajralib chiqadigan ma‘lum joylarni ish zonasidagi havoda ruxsat etilgan eng yuqori konsentratsiyalarga rioya etilishini ta‘minlaydigan so‘rish tizimli himoya vositalari bilan jihozlash lozim. Himoya vositalarida bug‘lar kondensatsiyalanishi mumkin bo‘lsa, uning pastki qismini suyuqliklarni yopiq idishlarga yig‘ish yoki jarayonga qaytarish imkoniyatini beruvchi yig‘gichlar shaklida tayyorlash zarur.

58. Xavflilik darajasi 1 va 2 bo‘lgan moddalar qo‘llaniladigan yoki hosil bo‘ladigan texnologik jarayonlarni yuqori germetiklik va ishonchlilikka ega bo‘lgan armatura va kommunikatsiyalar bilan jihozlangan qurilmalarda o‘tkazish lozim. Bunday qurilmalarga ekranlangan dvigatelli reaktorlar, cho‘ktiriladigan va salniksiz nasoslar, germetik o‘zi bo‘shatiladigan sentrifugalar va kristallizatorlar, qaynovchi qatlamda germetik quritgichlar, silfonli armatura, dozatorlar kiradi. Imkon qadar, bu jarayonlarni avtomatik yoki masofadan turib boshqarishni ko‘zda tutish kerak.

59. Texnologik jarayon o‘zgarganda yoki zararli moddalar ajralib chiqishi ko‘payishi ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan asbob-uskunalar unumdorligi oshganda, sanitariya me‘yorlariga rioya etilishini kafolatlovchi qo‘shimcha chora-tadbirlar (shamollatish quvvatini oshirish, chiqindilarni tozalash samaradorligini yaxshilash va boshqalar) ta‘minlanishi lozim.

60. Texnologik jarayon ko‘rsatkichlari va mahsulotlar sifatini nazorat qilish iloji boricha masofadan va avtomatik tarzda amalga oshirilishi kerak.

Bevosita qurilmalarga o'rnatilgan nazorat-o'lchov asboblari kuzatish va xizmat ko'rsatish uchun qulay joylashtirilgan bo'lishi shart.

61. Uskunadan namuna olish zarur bo'lganda, bu jarayon ishchi hududga gazlar, bug'lar va suyuq mahsulotlar chiqishini butunlay istisno etadigan xavfsiz (germetik, vakuumli) usulda bajarilishi lozim.

Namuna olish kranlari aspiratsiyalanadigan himoya qoplamalari bilan jihozlanishi kerak. Namunalar uchun idish germetik bo'lishi shart.

62. Zararli va agressiv moddalar sathini o'lchash qurilmalarning lyuklarini ochmasdan amalga oshiriladigan maxsus sath o'lchagichlar yordamida bajarilishi lozim.

63. Qurilmalarga vaqti-vaqti bilan sochiluvchan moddalar yoki oz miqdordagi suyuqliklar quyish zarur bo'lganda, qurilmalardan zararli gazlar va bug'lar ajralib chiqishining oldini olishni ta'minlovchi choralar ko'zda tutilishi kerak (masalan, ikki qatlamli germetik qulfaklar).

64. Suspenziyalarni filtrlash, sentrifugalash, kristallash va shunga o'xshash boshqa jarayonlar uchun yuklash va tushirish mexanizatsiyalashtirilgan germetik uskunalar qo'llanilishi shart.

Filtr-apparatlar, sentrifugar, kristallizatorlar va boshqalarga mahalliy so'rg'ichlar o'rnatilishi lozim. So'rib olingan havo rekuperatsiya yoki chiqindilarni zararsizlantirish orqali tozalanishi shart.

65. Zararli va agressiv suyuqliklar uchun o'lchagichlar va yig'gichlar to'ldirishning ruxsat etilgan maksimal darajasi haqida ogohlantiruvchi moslamalar bilan jihozlanishi, zarur hollarda esa ta'minlovchi va zaxira idishlarga ulanadigan oshib-to'kish quvurlari bilan ta'minlanishi lozim.

66. Mahsulotlarni (yakuniy va oraliq mahsulotlar, kub qoldiqlari va boshqalarni) idishlar va apparatlardan to'kish havoga zararli moddalar chiqishini va ishchilarning terisi ifloslanishini oldini oladigan usullar bilan amalga oshirilishi kerak.

67. Ilgari tarkibida zararli moddalar (kislotalar, ishqorlar) bo'lgan sisternalar, konteynerlar, olib qo'yiladigan ishlab chiqarish apparatlari, bochkalar va boshqa idishlarni tozalash, yuvish, bug'lash va zararsizlantirish maxsus jihozlangan bug'lash-yuvish stansiyalari yoki shoxobchalarida bajarilishi lozim. Qoldiqlarni olib tashlash, yuvish, bug'lash va degazatsiyalash maxsus estakadalarda mexanizatsiyalashgan usulda amalga oshirilishi shart.

Apparatlarni tozalash va ta'mirlash odamlarning apparatura ichiga kirishini talab qilmaydigan usullar bilan bajarilsin.

Vaqti-vaqti bilan zararsizlantiriladigan, tozalanadigan va yuviladigan stasionar apparatlarga bug', suv va boshqa vositalar o'tkazilishi, yopiq oqova tizimi va oqova suvlarni tozalash uskunalari nazarda tutilishi kerak.

68. Zaxira sig‘imlar apparaturani ta’irlashda mahsulotlarni to‘kish uchun, shuningdek kislotalar, agressiv suyuqliklar va suyultirilgan gazlar (ammiak, xlor va boshqalar) saqlanadigan sisternalardan favqulodda to‘kish holatlari uchun ko‘zda tutilishi lozim.

69. Moylash-sovitish suyuqliklari, moylar, ingibitorlar qo‘llaniladigan dastgohlar va uskunalar konstruksiyasida zararli moddalar bilan aloqani va ularning ishlab chiqarish xonalari havosiga tushishini oldini oluvchi qurilmalar (ishlov berish zonasini aspiratsiya bilan yopish, o‘rnatilgan mahalliy so‘rg‘ichlar, ekranlar, to‘siqlar kabilar) nazarda tutilishi kerak.

70. Kimyoviy moddalar ajralib chiqadigan texnologik jarayonlar iloji boricha masofadan boshqariladigan yopiq apparatlarda o‘tkazilishi lozim. Ishlov beriladigan buyumlar, xom ashyo va kimyoviy reaktivlarni yuklash va tushirish mexanizatsiyalashtirilgan bo‘lishi, oqim tartibiga rioya qilgan holda tashkil etilishi hamda bug‘lar va aerezollar ajralib chiqishi mumkin bo‘lmagan joylarda amalga oshirilishi kerak.

Butun tizim germetik bo‘lishi va chiqarib yuborilayotgan havoni zararli aralashmalardan tozalaydigan aspiratsiya bilan jihozlangan bo‘lishi lozim. Bu ularning ish zonasida va atmosfera havosidagi miqdorini ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalar darajasida saqlanishini ta’minlaydi.

71. Quvurlarning alohida qismlarini payvandlash orqali ulash zarur. Bunda faqat quvurlarni apparatlar va uskunalar bilan, shuningdek quvurlarning alohida qismlarini tozalash zarur bo‘lganda ulash uchungina flanetslardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Apparatlar, quvurlar va kommunikatsiyalardagi flanetsli birikmalar germetik bo‘lishi shart. Flanetsli birikmalar turi va qistirmalar uchun materiallar tanlashda mahsulotlarning xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Agressiv moddalar, kuchli kislota va ishqorlar hamda boshqalar uchun mo‘ljallangan quvurlardagi flanetslar himoya qobiqlari bilan qoplanishi lozim. Odamlar va transport harakatlanadigan joylar ustidan o‘tkazilgan quvurlarga flanetslar o‘rnatish taqiqlanadi.

72. Qo‘rg‘oshin, shisha va boshqa oson sinuvchan quvurlarni iloji boricha yo‘laklar va o‘tish joylari ustidan o‘tkazmaslik kerak. Istisno hollarda bunday joylashtirilganda, ular himoya g‘iloflari bilan o‘ralishi shart.

73. Bug‘, suv, siqilgan havo, siqilgan gazlar, vakuum liniyalari, kislotalar, eritmalar, kimyoviy mahsulotlar uchun quvurlar GOST va texnik shartlarga muvofiq turli ranglarga bo‘yalishi kerak.

74. Mo‘rt materiallardan (keramika, chinini, shisha) yasalgan jo‘mraklar himoya g‘iloflari bilan qoplanishi lozim.

75. Apparatlar va agressiv moddalar uchun idishlarning ichki yuzalari, ulardagi aralashtirgichlar va quvurlar korroziyaga chidamli materiallardan tayyorlanishi yoki shunday materiallar bilan qoplanishi zarur.

76. Qoplamalar, havo yo'llari, tortuvchi ventilyatorlar va boshqa jihozlarning materiallari ventilyatsiya qurilmalari orqali chiqarib tashlanadigan havo-gaz aralashmasi tarkibidagi moddalarga nisbatan korroziyaga chidamli bo'lishi shart.

77. Jihozlar va kommunikatsiyalarni binolardan tashqarida yoki havo harorati mahsulotlarning muzlash haroratidan past bo'lgan binolarda joylashtirish chog'ida, kommunikatsiyalarni isitish va qotib qolgan moddalardan tozalashda ularning zararli ta'sirini oldini olish maqsadida mahsulotlarning qotib qolishini bartaraf etuvchi ishonchli choralarni (masalan, bug' yoki issiq suvli yo'ldosh qurilma o'rnatish, bug'li qoplama o'rnatish va hokazo) ko'zda tutish lozim.

78. Jihozlarni atmosfera bilan bog'lovchi quvurlarni (havo quvurlarini) bino tashqarisiga chiqarish kerak. Aholi punktlari va havo olinadigan joylarda havoga qo'yiladigan talablarning bajarilishini ta'minlaydigan chiqindilarni tozalashni nazarda tutish zarur.

Havo quvurlari chiqindilarini ishlab chiqarish xonalariga chiqarishga, shuningdek turli jihozlardan chiqadigan va tarkibi har xil bo'lgan gazlar hamda bug'lar uchun mo'ljallangan havo quvurlarini bitta tizimga birlashtirish mumkin emas.

79. Texnologik jarayonlarning barcha qo'shimcha mahsulotlarini imkon qadar to'liq utilizatsiya qilish lozim. Sanoatda foydalanilmaydigan, tarkibida zararli moddalar mavjud bo'lgan mahsulotlarni atmosfera, suv havzalari va tuproqning ifloslanishini oldini olish maqsadida zararsizlantirish kerak.

80. Tarkibida zararli moddalar bo'lgan oqova suvlarni xonalarga gazlar kirishi ehtimolini istisno etadigan yopiq quvurlar orqali oqizish lozim. Kanalizatsiya lyuklari gidravlik to'siqlar bilan jihozlangan bo'lishi shart. Zararli gazlar ajralib chiqadigan kimyoviy reaksiyalar yuz beradigan oqova suvlarni birlashtirish man etiladi.

81. Ish xonalari havosiga to'satdan yoki vaqti-vaqti bilan zararli moddalar ajralib chiqishi xavfli bo'lgan ishlab chiqarishlarda ishchilar muntazam tekshiriladigan shaxsiy gazniqoblar bilan ta'minlanishi shart. Sexlardagi maxsus javonlarda favqulodda holatlar uchun gazniqoblar saqlanishi lozim. Ishchilar gazniqobda ishlash bo'yicha muntazam mashqlar o'tkazishlari kerak.

82. Teri va shilliq qavatlariga teri orqali singib o'tadigan (masalan, anilin, nitrobenzol) hamda teri va shilliq qavatlariga ta'sir qiladigan (masalan, mineral kislotalar, kuchli ishqorlar) zararli moddalar tushishi xavfi mavjud bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarida, ish xonalarida zararlangandan so'ng 6-12 soniya ichida

